QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

# INGLIZ VA O’ZBEK BADIY ADABIYOTIDA EVFEMIZMLAR:SEMATIKASI VA PRAGMATIK EFFEKTI

https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.051

***Radjabkulov Otaxon Rustam o’g’li***
*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti*
*tayanch doktoronti,TMC Instituti o’qituvchisi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek badiiy adabiyotidagi ikki ijodkor yozuvchi Said Ahmad va Jorj Oruell asarlari misolida evfemizmlar qo‘llanilishi va o’ziga xos xususiyatlari shuningdek, ularning pragmatik funksiyalari tadqiq qilindi. Evfemik birliklar ijtimoyi yoki madaniy jihatdan nojoiz, qo‘pol yoki yoqimsiz deb hisoblangan tushunchalarni yumshatilgan, ijtimoiy maqbul shaklda ifodalovchi lingvistik vosita bo‘lib, badiiy matnlarda u axloqiy-estetik mezonlarga asoslangan nutq madaniyatining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada tahlil qilingan misollar natijasiga tayanilsa,ingliz adabiy kontekstida evfemik birliklar ko‘proq siyosiy maqsadlarda eshtganda insoning hissiyotlarini junbishga keltiruvchi iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy katastrofik voqea va hodisalarni tilning nozik qirralari ya’ni evfemik birliklar bilan yashirish, yumshatish vazifasini bajargan bo’lsa, o‘zbek adabiyotida asosan Said Ahmad asarlarida an’anaviylik, diniy-axloqiy qadriyatlar va milliy mentalitet bilan bog’liq hodisa bilan asoslanadi.

**Kalit so’zlar:** evfemizm, pragmatik ta’sir, nutq aktlari,lokutiv, illokutiv, perlokutiv,

## ЭВФЕМИЗМЫ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАТИКА И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ЭФФЕКТ

**Аннотация** В данной статье рассматривается использование эвфемизмов, их специфические особенности и прагматические функции в произведениях двух писателей английской и узбекской литературы, Саида Ахмеда и Джорджа Оруэлла. Эвфемизмы это лингвистические средства, выражающие социально или культурно неприемлемые, вульгарные или неприятные понятия в смягченной, социально приемлемой форме, и в литературных текстах они проявляются как выражение речевой культуры, основанной на моральных и эстетических критериях. На основе анализа примеров, представленных в статье, можно сделать вывод, что в английской литературе эвфемизмы служили скорее политическим целям, скрывая и смягчая экономические, социально-политические катастрофические события и явления, вызывающие человеческие эмоции при восприятии с помощью языковых тонкостей, то есть эвфемизмов, тогда как в узбекской

литературе, главным образом в произведениях Саида Ахмеда, они основаны на явлениях, связанных с традиционализмом, религиозными и моральными ценностями и национальным менталитетом.

**Ключевые слова:** эвфемизмы, прагматический аспект, речевые акты, локатив, иллокутивный, перлокутивный

## EUPHEMISMS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN LITERATURE: SEMATICS AND PRAGMATIC EFFECT

**Abstract** This article examines the use of euphemisms in the works of Said Ahmad and George Orwell in English and Uzbek literature, their specific features, as well as their pragmatic functions. Euphemisms are linguistic means that express socially or culturally unacceptable, rude or unpleasant concepts in a softened, socially acceptable form, and in literary texts they are manifested as an expression of speech culture based on moral and aesthetic criteria. Based on the results of the examples analyzed in the article, in English literary context, euphemisms have served more political purposes, hiding and softening economic, socio-political catastrophic events and phenomena that stir human emotions with the subtleties of language, that is, euphemisms, while in Uzbek literature, they are mainly based on phenomena related to traditionalism, religious and moral values, and national mentality in the works of Said Ahmad.

**Key words**: euphemisms, pragmatic aspect, speech acts, locative, illocutionary, perlocutionary

Evfemik birliklar insoniyat tarixining qadimgi bosqichlaridayoq shakllangan bo‘lib, ularning tadqiqi tilshunoslik alohida fan sifatida vujudga kelmasdan avval ham mavjud bo‘lgan. “Evfemizm” termini hali paydo bo‘lmagan davrlarda ham qo‘pol, nomaqbul yoki dahshatli hodisalarni bilvosita, yumshoq shaklda ifodalash amaliyoti kuzatilgan va bu jarayon antik davr notiqlik madaniyati bilan bog‘langan deb hisoblanadi. Evfemik birliklarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar qatorida qadimiy irim-sirimlar ham muhim o‘rin tutadi. Bunday e’tiqodlar asosida ayrim so‘zlar inson ongida salbiy kuchga ega deb tasavvur qilingan, natijada ularning o‘rnini mazmun jihatdan yumshatilgan, ijobiyroq ma’no kasb etuvchi evfemik ifodalar egallagan degan qarashlar mavjud.

Dastlab, tilshunoslikda evfemizmlarni tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilish 20-asrda yevropa va rus tilshunoslari tomindan boshlangan. A.Larin va L.A.Bulaxovskiy evfemizmlarni struktural va vazifaviy xususiyatlarini tadqiq qilgan bo’lsa, V.P.Moskvin, M.L.Kovshova va A.M.Katsev kabi rus tilshunoslari evfemizmlar tilda paydo bo’lishi va vazifaviy xususiyatlarini bir necha ilmiy maqolalarida, monografiya va ilmiy ishlarida tizimli tahlil qilib tilshunoslikda evfemizmlar tadqiqiga asos yaratishgan.Evfemik birliklarning amaliy jihatdan asosan ga’rb tilshunoslari samarali ilmiy izlanishlar olib borishgan. Evfemizmlar nutq aktlari doirasida, sotsiolingvistik va pragmalingvistikaga oid ilmiy ishlar mavjud bo’lib, bu kabi tadqiqot ishlari evfemik birliklarni chuqurroq tahlilga tortishga nazariy asos bo’la oladi.

Evfemizmlar tilshunoslikda bugungi kungacha turli yo’nalishlarda keng ravishda tadqiq qilingan bo’lsada, tilshunos olimlar bu til birligi aynan qanday paydo bo’lib va nima maqsad vazifada qo’llanishiga doir aniq o’xshash nazariy qarashlarga ega emas balki bazi o’rinlarda bir-biriga zid bo’lgan qarashlar ham mavjudligini ko’rishimiz mumkin. H.Rauson evfemik birliklarni shunday tariflaydi: “evfemizmlar qo’pol iboralar o’rnida ishlatiladigan yumshoq, yoqimli yoki aylanma so’zlar.Odamlarni xafa qilishi yoki yoqimsiz narsani angalatishi mumkin bo’lgan iboraning o’rniga yoqimli yoki qo’pol bo’lmagan so’zlar va iboralar”. U evfemik birliklarni ma’no ifodasiga ko’ra ikki guruhga bo’ladi: ijobiy evfemizmlar va salbiy evfemizmlar.Ijobiy evfemizmlar ma’no ahamiyatini bo’rttirib ifodalaydi va bazan yomon narsalarni yaxshidek ta’riflaydi, salbiy evfemizmlar esa dahshatli narsalarni yumshoqroq so’zlar va iborlar bilan ifodalaydi.

Avstraliyalik tilshunoslar Allan va Burridge evfemik birliklarga quyidagi ta’rifni beradi: “qo’pol, uyatli ifodaning o’rnini bosuvchi muqobil variant bo’lib, bu kabi muqobil evfemizmlar tinglovchi yoki so’zlovchini noqulay holatga qo’ymaslik maqsadida yoki o’z obro’sini yoki tinglovchi yohud uchinchi shaxsning uyaltirmaslik yoki ruhiy havotirga solmaslik maqsadida ishlatiladi.” Ular turfa xil manodosh so’zlar to’plamiga oid leksemalarni belgilash uchun iksfemizm tushunchasi ostida bayon qiladi. “Iksfemizmlar leksik uzluksizlik chizig’ida joylashtirilgan bo’lib, bir uchida evfemizm ikkinchi uchida disfemizm, va ikkalasi orasida bir joyda ortofemizm turadi”deb yozishadi.

S.I.Ojegova evfemizmlarni ma’lum bir vaziyatga mos kelmaydigan, qo’pol yoki odobsiz so’z yoki iboraning o’rnini bosuvchi so’zlar yoki iboralar sifatida tariflaydi. D.N.Ushakov tahriri ostidagi lug’atda esa evfemizm atamasiga quydagi ta’rifni beradi: “odobsiz yoki qabul qilib bo’lmaydigan, to’g’ridan to’g’ri atash noqulay bo’lgan tushunchalarni bilvosita, yashirin ifodalaydigan so’zlar va iboralar.” Ushbu tarifdagi bilvosita so’ziga etibor qaratadigan bo’lsak, evfemizmlar nafaqat muayyan kummunikativ kontekstga to’g’ri kelmaydigan lingvistik birliklari o’rnida qo’llaniluvchi substitutlar shuning bilan birga referent obyektlarni yashirin tarzda nomlash va implitsit ma’nolarni aks ettiruvchi diskursiv birliklar ekanligini ko’rsatadi.

O.S.Axmanova tomonidan tahrirlangan lingvistik atamalar lug’atiga ko’ra: evfemizm obyekt yoki hodisaning bilvosita, yashirin, xushmuomila va yumshatuvchi belgisidan iborat trop” Agar ushbu termini ritorik nuqtayi nazardan va nutq tuzulishi hamda nutq va matnning shaklidan kelib chiqib izohlanadigan bo’lsa. B.I.Larin quydagicha ifodalaydi: “evfemizmlar ham metanomiya, metafora, sinekdoxa kabi troplarning bir turi bo’lib, uning boshqa troplardan farqi shundaki; u denotativ manoni ko’chma ma’noda ifodalamaydi aksincha nojo’ya yoki qo’pol tushunchalar manosini qisman berkitib yoki kuchsizlantirib ifodalaydi”deb farqini izohlaydi.

Yuqoridagi tilshunoslarning tariflarini tahlil qiladigan bo’lsak, har qanday troplar vazifa nuqtayi nazaridan evfemik birliklar bilan bir xil emas. Trop va evfemik birliklar o’rtasida vazifaviy jihatdan farq bor. V.P.Moskvin ham huddi shunday evfemizm nutqda ko’chma ma’no ifodalashda emas balki ikkilamchi nominativ birlik ekanligini takidlaydi.Agar kontekst taqazo

qilsa xatto boshqa tildan o’zlashgan so’zlar ham evfemizm sifatida ishlatilishi mumkinligini yozadi.

L.P.Krysinning sotsiolingvistikaga oid ilmiy tadqiqotida evfemik birliklarga quydagi ta’rifni bayon etadi: “evfemizm obyekt yoki voqelikni xususiyat yoki harakatni, bilvosita, perifrastik va shu bilan birga yumshatib ifodalash usuli”. Evfemizmning muhim va tadqiqotga asoslangan aniq ta’rifi tasvirlar orqali emas, balki ikkilamchi leksik nominatsiya vositasida amalga oshadi.Bu qarash nisbatan boshqa nazariy qarashlarni to’diradi.

L.N.Sakyan evfemizatsiyani ilmiy konsept sifatida ikki qismga bo’ladi: tizimli va diskursiv. Tizimli yondashuvga ko’ra, evfemizatsiya jarayoni bu leksik maxsus shakllangan evfemizmlar yaratish jarayoni va diskursiv yondashuvga ko’ra, evfemizatsiya bu muloqotni kontekstga mos evfemizmlar bilan to’ldirish. Shunday qilib, evfemizmlarning leksik birlik sifatida va nutq akti sifatida muloqotda shakllanadi.

Evfemizmlarning o’ziga xos jihati shundaki, ular lingvistik hodisa sifatida doimiy o’zgarmas emas yani o’zgaruvchan va davr va ijtimoyi-madaniy hodisalar bilan chambarchas bog’liqligidir. B.A.Larin ham evfemik birliklar tilda uzoq vaqt saqlanmasligini bayon etadi. Evfemizmlar tilda evfemizm maqomida uzoq saqlanib turmaydi va evfemizmlarning ma’no samaradorligi qo’pol yoki qabul qilib bo’lmaydigan tushunchaning mavjudligi bilan bevosita yoki bilvosita bog’liq. Tabu yoki evfemik birlik yumshayotgan tushuncha foydalanishdan chiqib ketganda, evfemizm o’zining evfemik ya’ni yumshatish funksiyasini yo’qotadi.

Biz tahlil qilgan lug’at va tadqiqot ta’riflarga asoslanib, evfemik birliklar quyidagi xususiyatlarga ega so’zlarni yumshatish uchun ishlatilishi kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin: qo’rqinchli, uyatli, jirkanch, odobsiz, qo’pol yiki noo’rin tushunchalarni yumshatib qo’pollik, beadablik va uyatlilik xususiyatlarini yashirishga qo’llaniladigan so’z va iboralar evfemizmlar deyish mumkin. Evfemik birliklar nutqning barcha funksional uslublarida pragmatik maqsadlarga xizmat qiluvchi lingvistik hodisa deyish mumkin. Lingvistik tadqiqotlarimiz shuni ko’rsatadiki, evfemik birliklar tilning barcha uslublarida qo’llanilishi va evfemizmlar asosan ijtimoyi muloqotda tabu tushunchalarni, salbi ma’noli leksemalarni va madaniy jihatdan nomaqbul iboralarni yumshatish funksiyasini o’taydi. Badiy diskursda esa bu hodisa maxsus estetik va ideologik yukga ega bo’lib, yozuvchilarning individual uslubga doir qarashlarini rivojlantirishga hissa qo’shadi.Ingliz va o’zbek badiy diskursida bu kabi evfemik birliklar salmoqli qo’llanilgan bo’lib, biz Said Ahmad va Jorj Oreull asarlaridan olingan bazi misollarni tahlilga tortdik.

**1. Fiziologik nuqsonlarni yumshatuvchi evfemizmlar**

**“Ko’zi ojiz”** – ko’rlik holatini yumshatib ifodalsh, stigmatizatsiyadan qochish

**“Qulog’i og’ir ”** – karlik holatini madaniy jihatdan maqbul shakli

**2. Ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarni yumshatish**

**“Qiyin kunlarni boshdan kechirdik”**- ocharchilik, zo'ravonlik, repressiya kabi travmatik tajribalarni bevosita nomlashdan qochish

**“Sharoit murakkablashdi”**- iqtisodiy tanazzul yoki siyosiy bosimni yumshatish

**“Vaqtinchalik qiyinchiliklar”** – uzoq davom etayotgan qiyinchiliklarni yumshatib ifodlash

**3. Salbiy xususiyatlarni berkituvchi evfemizmlar**

**“Tilga usta odam”** – yolg’onchi, demagog, manipulyator ma’nosida kinoyali evfemizm

**4. Oilaviy munosabatlar doirasidagi evfemizmlar**

**“Sharoit og’irroq”** – oilaviy zo'ravonlik, nikoh inqrozi, ajralishga yaqin holatni bilvosita ifodalash yoki oilaning moliyaviy holati qiyinligini ifodalash uchun

**“Tushunishmovchilik bor”** – oilaviy konfliktni minimallashtirish

Kabi ko’plab evfemik birliklar asarda uchratish mumkin ushbu evfemik birliklar nafaqat asardagi yozuvchi mahoratini balki o’zbek tili evfemizmlar salmoqli qo’llanilishidan darak beradi.

Jorj Oruellning “Animal Farm” (Molxona), “1984”, Down and Out in Paris and London” kabi asarlari ingliz tilidagi evfemizmlarga boy asarlar hisoblandi.Yozuvchi asosan siyosiy evfemizmlardan keng foydalanadi.

**1.Siyosiy davr xatolarini yumshatuvchi evfemizmlar**

- **“Adjustment” (tuzatish)** – siyosiy qatl, fizik yo'q qilish o'rnida
- **“Liquidation” (tugatish)** – ommaviy qirg'inlarni texnik-administrativ jarayon sifatida ko'rsatish
- **“Special treatment” (maxsus muomala)** – qiynoq va o'ldirishni tibbiy-davlat xizmati kabi ifodalash

**2. Ideologik boshqaruv vositasi sifatida evfemizmlar**

- **“Re-education” (qayta tarbiyalash)** – psixologik qiynoq, miya yuvish, majburiy mehnatni pedagogik jarayon sifatida legitimlash
- **“Thought reform” (fikr islohoti)** – ideologik reprogrammalash, shaxsni sindirish
- **“Correction” (tuzatish)** – jazolash va bostirishni ijobiy transformatsiya sifatida niqoblash

**3. Tarixiy yolg’onlarni evfemalashtirish**

- **“Unperson”** – davlat tomonidan yo'q qilingan, tarixdan o'chirilgan shaxs uchun neologizm
- **“Memory hole”** – hujjatlarni yo'q qilish tizimi uchun neytrallashtirilgan nom
- **“Rectification of records” (hujjatlarni to'g'rilash)** – tarixiy yolg’onlarni texnik jarayon sifatida ko'rsatish

**4. Totalitar Institutlarning Evfemik Nomlanishi (Ironik Inversiya)**

- **“Ministry of Love”** – aslida qiynoq va terror markazi
- **“Ministry of Peace”** – urush mashinasi
- **“Ministry of Truth”** – propaganda va yolg'on ishlab chiqarish instituti Bu nomlanishlar Orwellning "semantic inversion" (semantic inversiya) strategiyasi orqali yasalgan evfemik birliklar hisoblanadi

**5. Ideologik shiorlarda evfemik manipulyatsiya**

- **“All animals are equal, but some animals are more equal than others”** – egalitarizm (tenglik) targ’ibotining evfemik-paradoksal inkori sifatida yani bu jumla orqali barcha insonlar teng huquqli bo’lsada jamiyatdagi bazi insonlarning huquqlari va imkonyatlari boshqalarnikidan ustunroq deb tenglik g’oyasi yolg’onligi evfemalashtirilgan.Bu konteksda sintaktik evfemik birlik qo’llangan bo’lib asarda ko’zda tutilgan jamiyatda “tenglik” aslida yo’q ekanligini butun boshli qo’shma gap bilan evfemalashtiradi.

**“Freedom is slavery”** – totalitar mantiqning linguistik paradoksi

Quyidagi Said Ahmad va Jorj Oreuell asarlaridan bazi olingan evfemik birliklar va ularning tahlili bayon qilingan:

| Tahlil mezoni | Said Ahmad asarlarida satira | Jorj Oruell asarlarida siyosiy distopiya |
|---|---|---|
| Evfemizmlarning diskursiv vazifasi | Yumor yaratish, ijtimoyi tabularni yumsahtish,milliylikni til ruhiyatida saqlab qolish va psixologik himoya | Ideologik manipulatsiya, haqiqtni yashirish, siyosiy maqsadalrda ishlatiladigan evfemizmlar |
| Lingvistik strategiya | Implikatsitura (bilvosita ma’no yaratish, metafora, maqol,matallardan foydalanish | Semantik inversiya, byurokrtatik jargon, neologizmlar va “ doublespesak” lar orqali asar tili o’zgachalik kashf etadi. |
| Nutq akti nazariyasiga ko’ra | Lokutiv: Olamdan o’tdi<br>Illokutiv:Hurmat ko’rsatish, ta’ziya bildirish<br>Perlokutiv:Qayg’uni yumshatish, tinglovchini chuqur qayg’udan saqlash | Lokuti:“Enhanced interrogation techniques”<br>Illokutiv:qiynoqni qonuniylashtirish<br>Perlokutiv: jamoatchilikni chalg’itish,qo’rqinchli tushunchani yashirish |
| Grice maksimalari | Odoblilik maksimasi: “Katta yoshdagi odam” (chol/kampir o'rniga) Kamtarlik maksimasi: “Arzimas tavsiya” (o'z fikrlaringiz haqida)<br>Rozilik maksimasi: “Unchalik yaxshi emas” (yomon o'rniga) | Sifat maksimasi: “Collateral damage” ( ma’nosi: tinch aholi qurbonlari)<br>Miqdor maksimasi: “Negative patient care outcome” (o’lim)<br>Munosabat maksimasi: “Ethnic cleansing” (genotsid)<br>Usul maksimasi: “Extraordinary rendition” (qonunsiz hibsga olish) |

Said Ahmad va Jorj Oruel asarlaridagi misollar tahililiga tayanadigan bo’lsak, Said Ahmad milliy satirik qochirimlar va ananaviy maqol, metal va lingvistik evfemalarni jamiyat qabul qilmaydigan taqiqlarni yumshatish uchun, Oruell esa evfemizmlarni siyosiy kontekstdagi destruktiv tushunchalarni yashirish nisbatan yumshatish uchun ishlatgan desak to’g’ri bo’ladi Ikkala yozuvchining ijodida ham ingliz va o’zbek tili oziga xos qirralari qo’llanilgan, balki ijtimoiy muammolarni yashirib,haqiqatni shakllantiruvchi va o’zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bu ularning adabiy merosining lingvistik-antropologik ahamiyatini ta'kidlaydi.Oruell evfemizmlarni siyosiy tanqid uchun ishlatadi (keskin, ironik), ular haqiqatni

buzadi va totalitar tilni fosh qiladi. Said Ahmadda esa ular madaniy yumshoqlik va hazil vositasi, o'zbek an'analariga yaqin (neytral yoki ijobiy). Bu kabi evfemizmlar lingvistik manipulyatsiya vositasi haqiqatni o'zgartiradi, lekin Oruellda jamiyatni boshqarish quroli, Said Ahmadda insoniy muloqotning tabiiy qismi va evfemizmlar qo’llash juda ko’p holatlarda tilning ajralmas qismiga aylanib boradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Keith Allan, Kate Burridge. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. — New York : Oxford University Press, 1991. — 326 p.

2. Leonid Arsenyevich Bulakhovsky. Введение в языкознание. — М. : Учпедгиз, 1953. — 320 с.

3. Aleksey Mikhaylovich Katsev. Языковое табу и эвфемия. — Л. : ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1988. — 80 с.

4. Mariya Lvovna Kovshova. Семантика и прагматика эвфемизмов: когнитивный аспект. — М. : РГГУ, 2007. — 240 с

5. Boris Aleksandrovich Larin. Об эвфемизмах // Проблемы языкознания : Сб. статей, посвящённых 75-летию акад. И. И. Мещанинова. — Л. : ЛГУ, 1961. — С. 110–124.

6. Vasily Pavlovich Moskvin. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. — Волгоград : Перемена, 1999. — 180

7. Hugh Rawson. How Not to Say What You Mean: A Dictionary of Euphemisms. — New York : Facts On File, 1991. — 324 p.

8. Dmitry Nikolayevich Ushakov (ред.). Толковый словарь русского языка : в 4 т. — М. : ОГИЗ, 1935–1940.